Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Drexler K.E. Engines of creation. The Coming Era of Nanotechnology. Anchor Books Double-day, N.Y., USA, 1986, 299 p.

(2). Feinman R. There’s plenty of room at the bottom. An invitation to enter a new field of physics. Miniaturization. Edited by H. D. Hilbert, Reinhold, N.Y., USA, 1961 (русский перевод А.В.Хачояна смотри: Р.Ф.Фейнман. Внизу полным-полно места: приглашение в новый мир физики. Российский химический журнал. Перспективы нанотехнологии, том XLVI, № 5, 2002, с. 4–6.

(3). Singer P. Nanotechnology. Semiconductor International, January 2007, p. 36–40.

(4). https://ria.ru/20171002/1505888158.html

(5). https://www.nanoindustry.su/news/11484

(6). https://transhumanism.fandom.com/ru/wiki

Uralov Azamat Begnarovich (Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent)

NOMUTANOSIBLIKNING KO‘P VAZIFALILIKKA ALOQADORLIGI

Annotatsiya. *Nomutanosiblik ma’no jihatiga ko‘ra, shakl jihatiga ko‘ra, vazifa jihatiga ko‘ra bo‘lishi mumkin. Ma’no jihatiga ko‘ra nomutanosiblik, asosan, ikki xil ko‘rinishda kuzatiladi: ko‘p ma’nolilik va shakldoshlik. Shakl jihatiga ko‘ra esa nomutanosiblik to‘rt holatda kuzatiladi: ma’nodoshlikda, tejash tamoyillarida, allomorflarda va invariantlarda. Vazifa jihatiga ko‘ra esa ko‘p vazifalilik va ko‘chish (konversiya va transpozitsiya)da namoyon bo‘ladi. Maqolada nomutanosiblikning ko‘p vazifalilikka aloqadorligi o‘rganilgan. -ing, -gan, -ish, -man, -san, -di, -sa, -cha, -lar, -ma, -v shakllari ko‘p vazifalilikni ko‘rsatadi hamda vazifa jihatidan nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.*

Kalit so‘zlar: *morfologik shakllar, morfema, nomutanosiblik, lisoniy unsur, ko‘p ma’nolilik, ko‘p vazifalik, ko‘chish: konversiya va rtanspozitsiya, mazmun sathi, genetik ma’no, tejamkorlik (ekonomiya), nol shakl.*

Уралов Азамат Бегнарович (Сырдарьинский областной центр педагогического мастерства, заведующий кафедрой методики преподавания иностранных языков, доктор филологических наук, доцент)

СВЯЗЬ АСИММЕТРИИ С МНОГОЗАДАЧНОСТЬЮ

Аннотация. *Дисбаланс может быть в смысле значения, формы или функции. В смысловом отношении асимметрия наблюдается в основном в двух формах: полисемии и формализме. С точки зрения формы асимметрия наблюдается в четырех случаях: в семантической совместимости, в принципах экономии, в алломорфах и инвариантах. С точки зрения функции это проявляется в многозадачности и миграции (преобразовании и транспозиции). В статье рассматривается взаимосвязь между дисбалансом и многозадачностью. Формы -ing, -gan, -ish, -man, -san, -di, -sa, -cha, -lar, -ma, -v указывают на многозадачность и выявляют несоответствие задач.*

Ключевые слова: *морфологические формы, морфема, асимметрия, языковой элемент, полисемия, многофункциональность, перенос: конверсия и транспозиция, уровень содержания, генетическое значение, экономия, нулевая форма.*

Uralov Azamat Begnarovich (Doctor of Philology (DSc), Associate Professor, Syrdarya Regional Center of Pedagogical Skills Head of the Department of Language Teaching Methods)

RELATIONSHIP OF ASYMMETRY TO MULTIFUNCTIONALITY

Annotation. *Asymmetry can be in terms of meaning, in terms of form, and in terms of function. In terms of meaning, asymmetry is observed mainly in two forms: polysemy and form similarity. In terms of form, asymmetry is observed in four cases: in semantic similarity, in principles of economy, in allomorphs, and invariants. In terms of function, it is manifested in multi-functionality and transfer (conversion and transposition). The article studies the relationship of asymmetry to multi-functionality. The forms -ing, -gan, -ish, -man, -san, -di, -sa, -cha, -lar, -ma, -v indicate multi-functionality and reveal functional imbalance.*

Keywords: *morphological forms, morpheme, imbalance, linguistic element, polysemy, multi-functionality, transfer: conversion and transposition, content level, genetic meaning, economy (economy), zero form.*

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek tili morfologik shakllar tizimidagi morfemalarning nomutanosibliklari so‘zda ma’noni yuzaga chiqarish, ya’ni, so‘zga qo‘shimcha ma’no berish, uning boshqa shakl va mazmunlarini ifodalash nuqtayi nazaridan olib qaraladi. Shu sababli morfemalar alohida holatda

omonim, sinonim, ko‘p ma’noli, zid ma’noli yoki ko‘p vazifali bo‘lmaydi. Morfemalarning so‘z shakllari bilan ifodalangan holatda o‘zining shakl va mazmun munosabatini yuzaga chiqaradi.

Sintaktik sath hodisalariga xos shakliy-mazmuniy nomutanosiblik, ulardagi tarixiy o‘zgarishlar haqidagi ma’lumotlar V.G.Gak, N.Mahmudov, A.Berdialiyev, R.Rasulov, R.Abdusamatov, B.Sheronov, R. Roziqova singari olimlarning turli davrlarda yozilgan tadqiqotlarida uchraydi.

So‘z tarkibining asemantik xarakteridagi lisoniy unsurlari shakl va mazmun nomutanosibligining struktur nomutanosiblik deb ataluvchi turiga qarashli bo‘ladi. Struktur lisoniy nomutanosiblikning leksemalarga xos ko‘rinishi ham sintagmatik xarakterdagi nomutanosiblik hisoblanadi [1;26-b.]. Shu sababli ham bu masalaga jiddiyroq qarashga harakat qilamiz.

Til taraqqiyotda o‘z aksini topadi. Shu tariqa, o‘z o‘rni bilan taraqqiyot ham tilga o‘z hukmini o‘tkazadi. Morfem birliklar ham o‘zining rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tar ekan, til qurilishidagi o‘zgarishlar tufayli turli nomutanosibliklarni yuzaga keltiradi. Ayrim morfemalar yaxlitlashadi, ayrimlari soddalashadi, ayrimlari tublashishsa, ayrimlari asos tarkibiga singib ketadi. Til taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, morfemalar tarkibidagi o‘zgarishlar bir davrda ro‘y bermaydi, ular katta vaqt oralig‘ida turli o‘zgarishlarga uchrab, bugungi holiga kelib qolgan, qolaversa, hali o‘zgarishlari davom etadi.

A.Hojiyevning fikricha, affikslarda ko‘p ma’nolilik va ko‘p funksiyalilik hodisasi kuzatilmaydi, aksincha, affiksal morfemaning birikuvidan keyin bu jarayon so‘zda kuzatilishini aytadi hamda *-chi* affiksi misolida tasdiqlaydi. “*-chi* morfemasi yordamida bir so‘z (so‘z yasalish asosi)dan yasalgan so‘z ikki xil ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, *gulchi* yasama so‘zi: 1) gul yetishtiruvchi, 2) gul sotuvchi ma’nosini bildiradi. Lekin bu ikki ma’no ham *-chi* morfemasiga xos emas, balki umumiy holatdan anglashiladi” [2;62–63-b.]. Fikrning davomida bunday munosabatni barcha so‘z yasovchi va shakl yasovchi morfemalarga nisbatan qo‘llanilishini ta’kidlaydi. Fikrni qo‘llagan holatda aytish mumkinki, morfologik shakllar mustaqil holatda ma’no anglatmasligi aniq, ammo so‘z ma’nosini ro‘yobga chiqarayotgan shaklning ifodalanish nuqtayi nazardan, ular orasidagi munosabatda ko‘p ma’nolilik, omonimlik, sinonimlik va ko‘p vazifalik mavjud bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Darhaqiqat, nomutanosiblik ko‘p ma’nolilik, shakldoshlik, ma’nodoshlik va ko‘p vazifalilikka aloqador hodisa. Chunki morfologik shakllar tizimida nomutanosibliklarni yuqoridagi hodisalar yuzaga chiqaradi. Shakl va mazmun bir-biriga mutanosib bo‘lmas ekan, tilning qaysi sathida bo‘lishidan qatiy nazar, nomutanosiblikni keltirib chiqaraveradi. Izlanish maqsadidan kelib chiqib, har bir shakl va mazmun o‘rtasidagi munosabatlarni nomutanosiblik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqamiz.

Nomutanosiblik ma’no jihatiga ko‘ra, shakl jihatiga ko‘ra, vazifa jihatiga ko‘ra bo‘lishi mumkin. Ma’no jihatiga ko‘ra nomutanosiblik, asosan, ikki xil ko‘rinishda kuzatiladi: ko‘p ma’nolilik va shakldoshlik. Shakl jihatiga ko‘ra esa nomutanosiblik to‘rt holatda kuzatiladi: ma’nodoshlikda, tejash tamoyillarida, allomorflarda va invariantlarda. Vazifa jihatiga ko‘ra esa ko‘p vazifalilik va ko‘chish (konversiya va transpozitsiya)da namoyon bo‘ladi.

Nomutanosiblikning yuzaga chiqishi		
Ma’no jihatidan	**Shakl jihatidan**	**Vazifa jihatidan**
Ko‘p ma’nolilik	Ma’nodoshlik	Ko‘p vazifalilik
Shakldoshlik	Tejash tamoyili	Ko‘chish:
	Allomorflar	1.Konversiya
	Invariantlar	2.Transpozitsiya

Nomutanosiblikning vazifa jihatiga ko‘ra farqlanishini ko‘p vazifalilik (polifunksionnallik) va ko‘chish masalasida kuzatish mumkin. Uning ko‘chish: konversiya va rtanspozitsiya jihati mavjud. Quyida nomutanosiblikning ko‘p vazifalilikka aloqadorlini, uning ko‘p vazifalilik orqali namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqamiz. O‘zbek tilshunosligida polifunksionallik – ko‘p vazifalilik masalasida Y.Tojiyev, J.Eltazarov, N. Qodirova, G.Sulaymonova, A.Botirova singari olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Chunonchi, “tilshunos olimlar polifunksionallikni grammatik shaklning o‘z tabiatiga mos bo‘lmagan mohiyat kasb etishi, deya baholashadi [3;429-b.], chunki ko‘p vazifalilik ko‘p ma’nolilikka o‘xshaydi. Shaklda ma’no ko‘paygan sari vazifa ham ko‘payib boradi. Ayrim adabiyotlarda bu ikki hodisani aralashtirib berishadi. Ko‘p vazifalikda shaklni ikki so‘z tarkibida tekshirish orqali emas, ayni bir so‘z tarkibida ikki (ba’zan undan ko‘p) vazifani bajara olish asnosida belgilash lozim. Ko‘p ma’nolikda esa bir shaklning bir ma’nosi, boshqa so‘zlar tarkibida boshqa ma’nosi ifodalanishi kerak. “…til birliklarining polifunksionalligi masalasida tilshunoslar yakdil fikrda emas. Ba’zi tilshunoslar til birliklariga xos polifunksionallikni polisemiya

doirasida o‘rganishsa, bu muammo ayrim olimlar tomonidan polisemiya va omonimiya oralig‘idagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida e’tirof etiladi. Uchinchi toifa olimlar esa polifunksionallikni so‘z semantik strukturasidagi turli so‘z turkumlariga xos ma’nolarning sinkretizmi sifatida baholaydi” [4;56-b.]. Yosh tadqiqotchi A.Otaxanovaning fikricha, polifunksionallik hodisasi turkiy tillarda, asosan, o‘zbek tilida ko‘p kuzatiladi. Hozirgi o‘zbek tilida mavjud grammatik shakllarning ko‘pchilik qismi polifunksionallik xususiyatiga ega. Grammatik shakllarning funksional imkoniyatlari kengayishi natijasida, ularda birlamchi va ikkilamchi ma’nolar farqlanadi [5;95–96-b.].

Bu borada oliy ta’lim talabalari uchun mo‘ljallangan darslikda (2022) affiksal ko‘p ma’nolilik (affiksal polisemiya) haqida gapirilib, unga *-gan* shaklini misol qilib keltiriladi: “*-gan*. Bu affiks fe’l o‘zaklariga qo‘shilib: a) sifatdoshning aniqlovchi vazifasida keluvchi o‘tgan zamon shaklini yasaydi: o‘ril-gan (soch), o‘qil-gan (kitob), yozil-gan (insho) va b.; b) sof fe’lning kesim vazifasida keluvchi o‘tgan zamon shaklini yasaydi: (kitob) yo‘qol-gan, (ukam) kel-gan, (kanal) qazil-gan va b.” [6;43–44-b.]. Bunday qayd etilish ko‘p ma’nolik emas, aksincha, ko‘p vazifalikdir. *“Bu kitob hamma tomonidan o‘qilgan”* gapidagi *-gan* shakli bir vaqtning o‘zida sifatdosh vazifasini ham, zamon vazifasini ham, kesimlik shakli vazifasini ham bajarmoqda. Demak bu *-gan* shakli ko‘p vazifali shakl hisoblanib, ma’no anglatish jihatiga ko‘ra nomutanosiblikni yuzaga chiqarmoqda.

Professor V.A.Bogorodiskiy til mazmun sathi haqida shunday deb yozgan: “Genetik ma’noning real ma’nolarga o‘rin berishi tafakkur uchun katta tejamkorlik (ekonomiya) va muhim ahamiyat kasb etadi. Agar so‘zning real ma’nosi har safar ongimizda genetik ma’nolarga tortilaversa, bu holat tafakkur uchun, shu bilan birga, madaniyat uchun ham haddan tashqari to‘siq (tormoz) bo‘lgan bo‘lar edi” [7;153-b.]. Shunday ekan, nomutanosiblik har bir tilda, jumladan, o‘zbek tilida ham, tabiiy ravishda amal qiladigan, shakl va mazmunning o‘ziga xos bog‘lanishi, uzviy aloqadorligi, shakl va ma’noning o‘zgarishi, bir shaklning turli ma’nolar anglatishi, ko‘chishi, o‘zaro o‘tishi jarayonlarini aks ettiradigan muhim qonuniyatning nomi hi-soblanadi. Sinxroniya diaxroniyaning qonuniy davomchisi, vorisi bo‘lar ekan, har bir sinxron bosqichdagi shakldoshlik (omonimiya), ma’nodoshlik (sinonimiya), ko‘p ma’nolilik (polisemiya), ko‘p vazifalilik (poli-funksionallik) ham o‘z izohi, sabablariga ega. Ana shu jarayon va hodisalar tufayli til jamiyat ehtiyojlariga hozirjavob tizim qobiliyatini to‘liq namoyon qiladi. Tilning ana shu xususiyati haqida mashxur fransuz tilshunosi Sh.Balli quyidagicha fikr bildirgan edi: “O‘z doiralariga o‘ralgan belgi (ramz, ishora)lar tilning ko‘plab ehtiyojlarini qondirishda juda cheklangan manba sifatida xizmat qilgan bo‘lar edilar. Ammo kategoriyalararo almashinuv tufayli fikr erkinlikka erishadi, ifoda yanada boy va turli jilo (ottenka)larga ega bo‘ladi” [8;143-b.]. Shunday ekan, har bir shakl o‘z o‘rni bilan almashinib keladigan mazmunga xizmat qilishi lozim. Shaxs-son ko‘rchatgichining bir vaqtning o‘zida zamonni ham ifodalashi nomutanosib bo‘lsada, til qonuniyati uchun tabiiy holdir.

Tahlil va natijalar. Ayrim izlanuvchilar ko‘p vazifalikni asosning affiks bilan birgalikdagi harakati tufayli yuzaga kelishini takidlaydi va “Polifunksionallik ba’zan torroq, ba’zan juda keng tushuniladi. Morfemaning polifunksionalligi bir vaqtning o‘zida affiks va o‘zak sifatida harakat qilish qobiliyati” [4;55-b.], deb tushuntiradi. Bu, mantiqan olib qaraganda, to‘g‘ri, ammo asosning harakatidagi vazifani affiks bajarayotganligini ham ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Chunki ko‘p vazifalik affikslar o‘rtasida ham mavjud bo‘lib, uni asosga tayangan holda morfologik shakl yuzaga chiqaradi. Masalan, *boring* fe’l shakli asosida yuzaga kelayotgan ko‘p vazifalilikni *-ing* shaxs-son shakli yuzaga chiqarmoqda. *-ing* shakli bu yerda bir vaqtning o‘zida ikkita vazifani bajarmoqda: *boring* – shaxs-son va zamon. Yanada aniqlik kiritish mumkin: *bor+ing* – II shaxs, ko‘plik sonda, kelasi zamon mazmunida.

Polifunksionallik nol shaklda ham mavjud bo‘ladi: bor – buyruq istak mayli, I shaxs birlik sonda, bo‘lishli shaklda, kelasi zamon mazmuni.

Ko‘p vazifalilik, asosan, leksemada – so‘zlarda ifadalanadi. Terminlar borasida tadqiqot olib borgan A.N.Tatarinova sistemalararo quyidagi terminlar guruhlarini aniqlaydi: 1) polifunksional so‘zlar – bir-biri bilan obrazli o‘xshatishlar bilan bog‘langan tushunchalarni bildiruvchi terminlar; 2) sistemalararo omonimlar – teskari bog‘lanishni yo‘qotgan tushunchalarni bildiruvchi so‘zlar. Terminlarni sohalararo darajasiga qarab esa quyidagicha guruhlaydi: 1) turli, lekin o‘zaro aloqadorlikni bildiruvchi polifunksional so‘zlar, bir xil ma’noli turli terminosistemalarda ishlatiladigan atamalar; 2) aloqasizlikni ifodalovchi sohalararo omonimlar [9]. Fikrdan anglashiladiki, ko‘p vazifali so‘zlar ko‘p ma’noli so‘zlarga yaqinlik darajasi mavjud, bu terminlarda yanada yaqqolroq ko‘rinadi. Aslida, ko‘p ma’nolilikni turli leksik va sintaktik tarkibdagi bir qator so‘zlarning turli sintaktik vazifalarni bajarish qobiliyati deb tushunish va talqin etish lozim.

Ko‘p vazifalilik muammosini affikslar misolida tadqiq qilgan N.Qodirova affikslardagi ko‘p vazifali-lik bilan ulardagi ko‘p ma’nolilik, shakldoshlik bir xil hodisalar emasligini takidlaydi [10;16-b.].

Ular o‘rta-sida umumiylik jihatlari bo‘lsa ham, har biri alohida-alohida hodisalar ekanligi bizga ma’lum. Morfologik shakllarning shakldoshligida turli affikslarning shakl munosabati haqida, affiksal ko‘p vazifalilikda esa bir affiksning turli xil vazifa bajarishi haqida gap borsa, affiksal ko‘p ma’nolilikda bir affiksning ma’lum bir vazifada qo‘llanganda, turli xil ma’nolarni ifodalashi xususida fikr yuritiladi. Tilshunos olim Kurilovich o‘z tadqiqotlarida grammatik shaklning bosh ma’nosi birlamchi funksiya, grammatik shaklning hosila hola-tiga esa ikkilamchi funksiya muvofiq kelishini ta’kidlab o‘tgan [11;87-b.]. Buni quyidagi misolda yanada aniqroq ko‘rish mumkin: *-di* o‘tgan zamon shakli, ayni damda, shaxs-sonni ham ifodalaydi (III shaxs birlik-da).

-ma shaklining ko‘p vazifaligi xususida adabiyotlarda quyidagicha fikr keltirilgan: “Bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasini tasdiq-inkor kategoriyasidan farqlash lozim. Bo‘lishli-bo‘lishsizlik fe’lga xos va uning nokesimlik shakli. Bunda bo‘lishsizlik shakli bo‘lgan *-ta* ko‘rsatkichining o‘rnini aniq bilish lozim. Bu shakl boshqa (masalan, *-gan* shakli sifatdosh shakli sifatida boshqa paradigmadan, kesimni shakllantirishi bilan boshqa paradigmadan joy olganligi kabi) grammatik shakllardek ko‘p vazifali (polifunksional). U gap kesimi tarkibida kesimlik kategoriyasining umumiy grammatik ma’nosidagi “gap kesimini shakllantirish” ma’nosini xususiylashtirganligi bilan bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasidagidan boshqa bir qirrasini namoyon qiladi. Bu serqirra mohiyatli, ko‘p funksiyali lisoniy birliklar kabi *-ta* shakli ham birdan ortiq paradigmadan o‘rin olishini ko‘rsatadi” [12;212–213-b.].

Xulosa va takliflar. Demak, morfologik shakllar tizimidagi *-ing* shakli shaxs-son va zamon (o‘rni bilan mayl) shakllarida, *-gan* shakli sifatdosh va zamon shakllarida, *-ish* shakli nisbat va harakat nomi shakl-larida (so‘z yasovchi vazifasida ham), *-man, -san* shakllari shaxs-son va kesimlik shakllarida, *-di* shakli za-mon va shaxs-son shakllarida, *-sa* shakli mayl shakli va bog‘lovchi vositasida, *-cha* kichraytirish shakli (o‘rni bilan piching shakli: askarcha, shoircha, blogercha) va so‘z yasovchi shakl (*o‘zicha*) (o‘rni bilan o‘x-shatish yuklamasi: *moshcha aqli yo‘q*) sifatida, *-lar* shakli (fe’llarda) ko‘plik va hurmat shakllarida, *-ma* shakli bo‘lishsizlik va so‘z takrorini bog‘lash evaziga so‘z yasovchi (*yuzma-yuz, qo‘lma-qo‘l, ko‘chama-ko‘cha* (o‘rni bilan so‘z yasovchilik: *ko‘chma*)) shakllarda, *-v* shakli harakat nomi va so‘z yasovchi (saylov, o‘lchov) shakllarida ko‘p vazifalilikni ko‘rsatadi hamda vazifa jihatidan nomutanosiblikni yuzaga chiqara-di.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бердиалиев А. Сўз таркиби ва шакл-маъно номутаносиблиги. Бишкек, 2013.

(2). Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. Т., “Фан”, 2010.

(3). Ботирова А. Ўзбек тилида сўз туркумларининг бирламчи вазифалари. Т., “Турклад”, 2018.

(4). Исломов И. Ўзбек тили географик терминларида полифункционаллик. “Халқ таълими”, 2021, 6-сон.

(5). Отаханова А. Ҳозирги ўзбек тилида полифункционаллик. Journal of universal science research, 2023, 1-сон.

(6). Бердиалиев А., Эрматов И. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., “Тамаддун”, 2022.

(7). Богородицкий В.А. Введение в татарское языкознание. Казань, 1953.

(8). Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. М., 1955.

(9). Татаринова А.Н. Опыт системного исследования немецкой химической терминологии: на материале общей и неорганической химии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук, М., 2005.

(10). Қодирова Н. Ўзбек тилидаги аффиксларда полифункционаллик. Филол. фан. номз. ... дисс. Автореф., Т., 2002.

(11). Элов Б., Ахмедова Х. Ўзбек тилидаги полифункционал сўзларни семантик фарқловчи бизнес-жараёнларни моделлаштириш. Ўзбекистон: тил ва маданият. Амалий филология масалалари, Т., 2022.

(12). Сайфуллаева Р. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек тили. Т., “Фан ва технологиялар”, 2009.

Kdirbaeva Gulzira Kurbanbaevna (Nukus davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni masofadan o‘qitish” kafedrasi dotsenti, DSc)

OLAM PAREMIOLOGIK MANZARASIDA MIFOLOGIK KONSEPTOSFERA BIRLIKLARINING VOQELANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va qoraqalpoq olam lisoniy milliy manzarasida voqelanuvchi mifologik konseptosfera birliklari sifatida paremiologik birliklarning tarkibidagi komponentlar tahlil qilinadi. Mifologik konseptosfera birliklari tadqiq qilinayotgan tillarning paremiologik fondidan tanlab olingan va batafsil tahlilga tortilgan. Til birliklarining batafsil tahlili izohli lug‘at ta’riflari bilan mifologik ma’nolar o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni aniqladi.*